XALQ DEPUTATLARI YANGIOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-avgust VI-71-77-3-54-K/24 Yangiobod tumani

Yangiobod tumanining Zomin tumani bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Yangiobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Yangiobod tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud (massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhining Yangiobod tumanining Zomin tumani bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

- Yangiobod tumanining Zomin tumani bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

- Yangiobod tumanining Zomin tumani bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4.Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Rajabov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining internetidagi rasmiy veb-saytida yoritish tavsiya etilsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi



I.B.QARSHIBOYEV

Xalq deputatlari Yangiobod tumani
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-71-77-3-54-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Yangiobod tumanining chegarasini belgilashda dala kuzatuv ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha
TAVSIFI

Yangiobod tumani, Zomin tumani va Tojikiston Respublikasining chegara chiziqlari kesishgan joy, quruq ariq bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimda*, *shimoliy kenglik 40°04'05,701", sharqiy uzunlik 68°36'13,868").*

A dan B gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 1 - 2 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan 2 - nuqtagacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan chegaradosh bo‘lib, chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘idan olindi. *(shimoliy kenglik 39°51'01,690", sharqiy uzunlik 68°38'30,027").*

B dan D gacha Zomin tumani yerlari bilan 2 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2407 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali quruq soy bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52'12,651", sharqiy uzunlik 68°38'37,588").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishida barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1901 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52'58,544", sharqiy uzunlik 68°38'39,623").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1119 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'26,235", sharqiy uzunlik 68°38'57,357").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 99 metr, keyin sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 619 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'43,493", sharqiy uzunlik 68°38'50,409").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1061 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutushadi (shimoliy kenglik 39°53'45,346", sharqiy uzunlik 68°39'28,997").

7-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 201 metr masofada qir-adirliklar yonbag‘rlariga o‘tadi va qir-adir yonbag‘rlari bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1385 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'26,478", sharqiy uzunlik 68°39'23,070").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1822 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'13,329", sharqiy uzunlik 68°39'02,862").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 1649 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2163 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'22,953", sharqiy uzunlik 68°37'20,212").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1653 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'50,260", sharqiy uzunlik 68°36'31,533").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy yo‘nalishda 1792 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 486 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 39°57'08,834", sharqiy uzunlik 68°37'56,760").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2161 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 39°57'45,547", sharqiy uzunlik 68°36'43,068").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1287 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 39°57'57,165", sharqiy uzunlik 68°37'34,725").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan quruq soyga o‘tib, keyin soyning o‘ng tomoni bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 460 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'48,550", sharqiy uzunlik 68°37'47,572").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1526 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 39°57'09,263", sharqiy uzunlik 68°38'23,609").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan qir-adirliklar yonbag‘riga o‘tib, keyin qir-adirlik yonbag‘ri bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1125 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'52,408", sharqiy uzunlik 68°39'02,411").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan

holda 1398 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'17,447", sharqiy uzunlik 68°39'31,881").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi ariqdan qir-adirliklar yonbagʻrlariga oʻtib, keyin qir-adir yonbagʻrlari boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 373 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'10,089", sharqiy uzunlik 68°39'39,649").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 441 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'58,269", sharqiy uzunlik 68°39'47,961").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi ariqni kesib oʻtib, quruq ariqqa tutashadi va ariqning chap tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishida 293 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'01,258", sharqiy uzunlik 68°39'58,819").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyning oʻng tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishida barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5023 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58'19,175", sharqiy uzunlik 68°38'46,990").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, quruq soyning oʻng tomoni bilan avval, umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishida 2324 metr masofani oʻtib, keyin oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4746 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'32,237", sharqiy uzunlik 68°36'53,455").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishida 1157 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'08,395", sharqiy uzunlik 68°36'45,243").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan quruq ariqqa oʻtib, ariqning chap tomoni bilan avval shimoliy yoʻnalishda 2320 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1153 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'54,217", sharqiy uzunlik 68°36'14,680").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegra chizigʻi orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishida 118 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyidagi 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'55,713", sharqiy uzunlik 68°36'19,264").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 332 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'05,108", sharqiy uzunlik 68°36'12,428")*


27-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 39 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, Yangiobod tumani, Zomin tumani va Tojikiston Respublikasining chegara chiziqlari kesishgan joy, quruq ariq boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich

1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'05,701", sharqiy uzunlik 68°36'13,868")*

Xalq deputatlari Yangiobod tumani
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-71-77-3-54-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyati Yangiobod tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Tojikiston Respublikasi yerlari*
B dan A gacha *Zomin tumani yerlari*

Shartli belgilar

- Chegaraning burilish nuqtalari
- Davlat chegaralari
- Tumanlar chegarasi